

IRODA JARAYONLARI VA SHAXSNING IRODAVIY SOHASI

Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna

KDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası v/b dotsenti, PhD

Qodirova Marjona

Kattaqo'rg'on Davlat Pedagogika Instituti Filologiya

va ijtimoiy fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi +998932615407

marjonaqodirova188@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20135163>

Annotatsiya: Ushbu maqola shaxsning irodaviy sohasi va iroda jarayonlarining psixologik mohiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada irodaning asosiy sifatleri, jumladan, qaror qabul qilish, sabr-toqat va qat'iyatning ahamiyati tahlil qilinadi. Shaxsning qiyinchiliklarni yengish, o'zini nazorat qilish, maqsad sari intilish, ya'ni irodaviy salohiyatini rivojlantirish yo'llari mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Bu maqola mazmuni shaxsning irodaviy sifatlarini oshirish orqali muvaffaqiyatga erishish yo'llarini ochib beradi.

Kalit so'zlar:iroda, irodaviy sifatlar, qaror qabul qilish, sabr-toqat, qat'iyat, shaxs kamoloti, irodaviy jarayonlar, maqsad.

Annotation: This article is devoted to analyzing the psychological essence of an individual's volitional sphere and volitional processes. The article examines the main qualities of will, including the importance of decision-making, patience, and determination. It also explores the mechanisms and ways of developing an individual's volitional potential, such as overcoming difficulties, self-control, and striving toward goals. The research findings reveal ways to achieve success by enhancing an individual's volitional qualities.

Keywords: will, volitional qualities, decision-making, patience, determination, personal development, volitional processes, goal.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу психологической сущности волевой сферы личности и волевых процессов. В статье рассматриваются основные качества воли, в том числе значение принятия решений, терпения и настойчивости. Также изучаются механизмы и пути развития волевого потенциала личности, такие как преодоление трудностей, самоконтроль и стремление к достижению цели. Результаты исследования раскрывают пути достижения успеха посредством повышения волевых качеств личности.

Ключевые слова: воля, волевые качества, принятие решений, терпение, настойчивость, развитие личности, волевые процессы, цель.

Kirish. Inson hayotida iroda jarayonlari muhim o'rin tutadi. Inson kundalik hayotida uchraydigan turli vaziyatlarda to'g'ri yo'lni tanlashi, qat'iyat va sabr-toqat bilan oldinga intilishi irodaviy sifatlar orqali shakllanadi. Iroda ongli ravishda maqsad qo'yish va unga erishish uchun ichki va tashqi qiyinchiliklarni yengib o'tish jarayonidir. Qaror qabul qilish, sabr-toqat, qat'iyat kabi sifatlar irodaning asosiy tarkibiy qismlaridir. Iroda shaxsning motivatsiyasi va hissiy barqarorligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, shaxsning kamolotga yetishi, jamiyatda o'z o'rnini topishi va munosabatlarni shakllantirishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Asosiy qism. Borliqni aks ettirish, faoliyatni muayyan yo'nalishda tashkil qilish, muammolar yechimini topish yuzasidan ma'lum bir qarorga kelish, uni amalga oshirish jarayonida qiyinchiliklarni yengish harakatlar yordami bilan ro'yobga chiqadi. Turli ehtiyojlar (shaxsiy, jamoaviy, tabiiy, madaniy, moddiy, ma'naviy) tufayli vujudga keladigan maqsadga

yo'nalganlik xususiyatini kasb etadigan shaxsning faolligi o'zining tuzilishi, shakli, rang-barang bo'lgan xatti-harakatlar va sa'y-harakatlar yordami bilan tabiat, jamiyat tarkiblarini maqsadga muvofiq qayta quradi, takomillashtiradi, ezgu niyatga xizmat qildirishga bo'ysundiradi. Ehtiyoj, motiv, qiziqish, anglashilmagan, anglashilgan mayllar negizidan kelib chiqadigan barcha ko'rinishdagi harakatlar, o'zlarining yuzaga kelishiga qarab ixtiyorsiz va ixtiyoriy turkumlarga ajratiladi. Odatda, psixologiyada ixtiyorsiz harakatlar anglangan yoki yetarli darajada anglanmagan istak, xohish, tilak, mayl, ustanovka va shu kabilarning ichki turtki ta'sirida paydo bo'lishi natijasi o'laroq ro'yobga chiqadi.

Odamning ixtiyorsiz harakatlari qat'iy bir maqsadsiz, ko'pincha impulsiv tarzda, ya'ni reflektor tarzda yuzaga keladi. Masalan, yo'talish, aks urish, ko'z qovog'ini ochib yumilishi va shu kabilar. Bu harakatlarni odam oldindan o'ylab rejalashtirmaydi. Ixtiyorsiz harakatlar har qanday sharoitda yuz berishi mumkin.

Ixtiyoriy harakatlar iroda bilan bog'liq bo'lgan harakatlardir. Ixtiyoriy harakatlar oldindan belgilangan maqsad asosida to'la ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlardir. Lekin ixtiyoriy harakat deganda, faqat jismoniy harakatlar emas, balki, aqliy harakatlar ham tushuniladi. Shunday qilib, iroda tushunchasiga nisbatan adabiyotlarda turlicha ta'riflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiy darsligida iroda - bu kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishida qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishi demakdir, deb ta'riflanadi.

Irodaning asosiy tarkibiy qismi - maqsad qo'yishdir. Maqsad kishining bu paytda ma'qul deb topgan ish harakatini tasavvur etish demakdir. Masalan, inson pedagogika institutiga kirib o'qishni zarur deb topdi yoki viloyatga ish bilan borib kelish zarurligini tushundi, deylik. Bularning hammasida kishining maqsadi o'z-o'zidan zohir bo'lib borayotganga o'xshaydi, ba'zan esa bu maqsad bu qadar fikr yuritish natijasida yuzaga keladi.

Harakat yo'llari, usullari topilib odam ularni tasavvur qilayotgan ekan, demak ehtiyojni qondirishga intilish tamomilola anglaniladi, odamning tilak-havasi esa bir narsa bo'lib qoladi. Bunday intilish holati ba'zan hohish deb ataladi. Kishi biror ishni qilmoqchiman, falon ishni bajarmoqchiman, o'qishga kirmoqchiman, va hokazo deb gapirar ekan buni ma'nosi shuki, mazkur kishi o'z intilishlarining maqsadini va shu maqsadga yetish vositalarini anglash, tasavvur qilish va bilish bilangina cheklanib qolmay, maqsadga yetish mumkinligini, ma'lum bir yo'ldan ish ko'rishga tayyorligini va qilinadigan harakatining oqibaqtni kam o'ylaydi.

Irodaviy jarayonning ikkinchi bosqichi - qaror qabul qilish. Qaror qabul qilish jarayoni shaxs ehtiyojlari, ichki qarama-qarshiliklari va tashqi omillar ta'sirida kichadi. Psixologlar qaror qabul qilishni tanlov vaziyatidagi irodaviy zo'riqish sifatida talqin qiladilar. Ba'zi hollarda inson bir necha alternativ qarorlar orasida ikkilanadi, bu esa uning emotsional barqarorligiga va fikrlash tezligiga bog'liq bo'ladi. Kuchli irodali shaxslar tezroq, aniqroq va mas'uliyatli qaror qabul qila oladilar.

Biror qarorga kelish sur'ati bir qancha sabablarga, jumladan, ehtiyojga, hal qiluvchi motiv kuchiga, vaziyatga, hissiyotga tafakkur va xayolning taraqqiyot darajasiga, kishining turmush tajribasi, bilimlariga, temperamenti va xarakteriga, boshqa kishining nasihati, buyruq, iltimos, takliflariga quloq solishiga bog'liq bo'ladi. Biror qarorga kelish sur'ati

asosan qo'yilgan maqsadning ahamiyatiga, biror qarorga keltiruvchi faoliyatning xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Sabr-toqat irodaviy faoliyatning asosiy psixologik komponentlaridan biridir. U insonning vaqt davomida o'z harakatini bir maromda davom ettira olishi, kechikkan natijalarga bardosh berishi, emotsional taranglikni boshqara olishi bilan tavsiflanadi. Sabr-toqat asosan uzoq muddatli maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi, masalan, ta'lim olish, sport mashg'ulotlari, kasbiy rivojlanish yoki shaxsiy rejalarining amalga oshirilishi jarayonida.

Kishi o'z faoliyatida ba'zan sovuq va issiqdan, yomg'ir va qordan, qattiq toliqish, och qolishdan, hamma turli kasalliklardan azob chekadigan kishi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga sodiq bo'lib shu maqsadga yetishga intilsa, bunday intilishlarda ko'rinadigan iroda chidam va toqat deyiladi. Odamning organizmidagi yemirilish jarayonlarini yengishda ifodalanadigan ajoyib iroda o'zini tuta olish va matonatda ko'rinadi.

Qat'iyat esa shaxsning tanlagan yo'lidan qaytmasligi, qiyinchiliklarga qaramasdan maqsadga intilishi bilan xarakterlanadi. Qat'iyat kuchli motivatsiya, o'ziga ishonch va o'zini baholash darajasi bilan bog'liq. Psixologik tadqiqotlarda qat'iyat shaxsning muvaffaqiyatga erishishidagi eng muhim prediktorlardan biri sifatida ko'riladi. Qat'iyat shaxslar noqulay vaziyatlarda ham mustahkam qaror ustida turadi, tashqi ta'sirlar yoki vaqtinchalik qiyinchiliklar ularning motivatsiyasini pasaytirmaydi.

Shaxsiy tajribamda irodaviy sifatlarning namoyon bo'lishi bir qator vaziyatlarda kuzatilgan. Xususan, o'quv jarayonida murakkab va uzoq vaqt talab qiladigan topshiriqni bajarish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelganman. Dastlab ushbu faoliyatni to'xtatish yoki keyinga qoldirish istagi paydo bo'lgan. Biroq vaziyatni ongli ravishda baholab, vazifani yakunlash zarurligini angladim. Ushbu jarayonda o'z-o'zini boshqarish, ichki motivatsiya va sabr-toqat muhim rol o'ynadi. Men faoliyatni kichik bosqichlarga bo'lib, izchil davom ettirish orqali uni oxiriga yetkazishga erishdim.

Natijada topshiriq muvaffaqiyatli yakunlandi va bu holat irodaviy zo'r berish hamda qat'iyatning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu misol shuni ko'rsatadiki, shaxsning irodaviy sifatlari, xususan, o'zini majbur eta olish va boshlagan ishni oxiriga yetkazish qobiliyati faoliyat samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir.

Xulosa. Iroda jarayonlari va shaxsning irodaviy sohasi insonning maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini boshqaruvchi asosiy psixologik mexanizmlaridan biridir. Ular insonning qiyinchiliklarni yengishini va o'zini nazorat qilishini ta'minlaydi. Ushbu sifatlarni rivojlantirish uchun tizimli mashqlar, o'z-o'zini tarbiyalash va maqsadga yo'naltirilgan harakatlar zarur. Irodaviy salohiyatni oshirish shaxsning hayotiy muvaffaqiyatiga, shuningdek, jamiyatning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har bir inson o'z irodaviy salohiyatini anglab, uni doimiy ravishda rivojlantirib borishi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Eshquvvatov T.E. Umumiy psixologiya. – Kattaqo'rg'on, 2024.
2. G'oziyev E.G'. Psixologiya. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008.
3. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2008.

4. Norqulova O. Iroda jarayonlari va shaxsning irodaviy sohasi:irodaning shakllanishi, qaror qabul qilish, sabr-toqat, qat’iyat kabi sifatlari mavzusida yozgan maqolasi.